



Ra'no BEGMATOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti

E-Mail: rano@rambler.ru

O'zDJTU dotsenti, f.f.n. Xoliyarov L.T. taqrizi ostida

НАРУШЕНИЕ ПРИНЦИПА ЯЗЫКОВОГО СОТРУДНИЧЕСТВА И ЕГО ПРИЗНАКИ

Аннотация

В данной статье автор рассказывает о трактовке принципа лингвистической кооперации, причинах его нарушения, анализируются различные взгляды ученых. Кроме того, упоминаются факторы нарушения принципов лингвистической кооперации, их специфические характеристики и инициаторы конфликта. Также в ходе исследования было выявлено нарушение принципов сотрудничества, заложенных Г. П. Грайсом.

Ключевые слова: Принцип кооперации, конфликт, конфронтация, речевое поведение, конфликтная ситуация, неудачная коммуникация.

LISONIY KOOPERATSIYA TAMOYILINING BUZILISHI VA UNING KO'RSATKICHLARI

Аннотация

Ushbu maqolada muallif tomonidan lisoniy kooperatsiya tamoyilining talqini, uning buzilish sabablari xususida so'z yuritilgan bo'lib, ko'p sonli olimlarning turlicha qarashlari tahlil qilingan. Qolaversa, lisoniy kooperatsiya tamoyillarining buzilish faktorlari, nizo tashabbuskorlari va o'ziga xos xususiyatlari keltirib o'tiladi. Shuningdek, konfrontatsiya jarayonida H.P.Grays tomonidan asos solingan kooperatsiya tamoyillarining buzilishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: Kooperatsiya tamoyili, kommunikativ nizo, qarama-qarshilik, nutq hat-harakatlari, ziddiyatli vaziyat, muloqot mavaffaqiyatsizligi.

VIOLATION OF THE PRINCIPLE OF LINGUISTIC COOPERATION AND ITS INDICATIONS

Annotation

The author of this article describes the interpretation of the principle of linguistic cooperation, the causes of its contravention, and analyzes various scientific viewpoints. Furthermore, the factors that violate the principles of linguistic cooperation, their specific characteristics, and the conflict initiators are mentioned. The investigation also revealed a contravention of G. P. Grice's cooperation principles.

Key words: Cooperation principle, conflict, confrontation, speech behavior, conflict situation, communication failure.

Kirish. Kooperatsiya lingvistik hodisasini tilshunoslikka oid ilmiy adabiyotlarda tadqiq etar ekanmiz, kooperatsiyaning buzilishi holatlariga duch kelamiz. Bu holatlar turli atamalar yordamida namoyon bo'ladi.

Lingvistik kooperatsiya hodisasi ustda izlanishlar olib borgan jahon, MDH davlatlari va vatanimiz olimlari qatoriga D. Lumsden, N.Maxmudov, Sh.Safarov, S.I. Moskalyova, S.B. Minina, I.V.Pevneva, N.A. Belous, A.V. Belozeroval, V.S. Tretyakova, D.S. Kalabuxova va boshqalar kiradi..

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Olima N.A. Belousning guvohlik berishicha, lingvistika ilmining izlanish sohasiga kirib borayotgan masalalardan biri nutqiy kooperatsiya va nutqiy konfliktidir. Natijada tildan amalda foydalanish jarayoniga yangi tushunchalar kirib bormoqda, jumladan, xafa bo'lish, tahdid, haqorat singari tilning inektiv vazifalashuvi bo'lsa, nuningdek, nutq agressiyasi, lisoniy ekologiya va til manipulyatsiyasi tushunchalaridir [3]. Xulosa shuki, ilmda konseptual va terminologik bo'shliqlar mavjud bo'lib imperik tekshiruvlarni taqozo qiladi.

Kooperatsiyaning buzilish hodisasi nima degan savolga javob izlanganda, kooperatsiya jarayoniga qarama-qarshi qo'yiladigan holatga nokooperativlik hodisasi keltirilishi aniqlandi. Kommunikatsiyaning ravon kechishi uchun kommunikantlar tomonidan ikki (yoki ko'p) tomonlama ta'sir mavjuddir va agar ishlab chiqilgan tamoyillarga e'tibor qaratilmasa kooperatsiya tamoyili buziladi va suhbat inqirozga uchraydi[4]. Shu bilan birga kooperatsiyaning buzilishi bu kooperatsiyaga intilmaslik bo'lib va uning natijasida nokooperativlik yuzaga keladi.

Nizo so'ziga ko'p olimlar tomonidan turli hil ta'riflar berilgan. Amerika va rus lingvokulturalarida konfrontatsiya vaziyatida kommunikativ strategiya va taktikalarni o'rgangan olimlar I.V. Pevneva nizo so'zining ta'rifini keltirar ekan, ikki madaniyatda ikki hil yondashuv borligini yoritib o'tadi, ya'ni rus tilida nizo atamasi sabab-oqibat zanjirini ta'kidlab o'tuvchi statik tarkibiy qism ekanligini va unda agressiya borligini, amerika lingvistik ongida esa nizo so'zi nafaqat ziddiyatning mavjudligi, balki uni hal qilish zarurati bilan ham bog'liqdir [8]. Demak, nizo atamasi turli millatlarda turli xususiyatlarga ega bo'ladi. Fikrimiz dalili uchun olimlar I.O. Kosovanning "kommunikativ nizo" atamasiga bergan ta'rifini keltirishimiz mumkin: "... bunda biz ikki tomonning (konflikt ishtirokchilari) manfaatlarini, maqsadlarini, qarashlari to'qnashadigan vaziyatni tushunamiz, va ushbu to'qnashuvlar natijasida tomonlarning biri ongli yoki ongsiz ravishda boshqa kommunikantga (jismoniy yoki og'zaki) zarar yetkazishi, va boshqa tomon bu harakatlar uning manfaatlariga qarshi qaratilganligini anglagan holda sherigiga qarshi javob choralarini ko'rilishi deb bilamiz"[4]. Ko'rinadiki, nizo tushunchasi kooperatsiyaning buzilishi hodisasi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq.

O'z o'rnida olimlar S.I. Moskalyova kooperatsiya buzilish hodisasini quyidagicha ta'riflaydi – "... bu suhbatdosh sheriklarning vaziyatni tushunish jarayoni farqlanuvchi va oqibatda noadekvat reaksiyaning namoyon bo'lishi"[7]. Demak, ushbu jarayonning natijasi sifatida muloqot muvaffaqiyatsizligining yuzaga kelishini keltirish mumkin.

Shuningdek, olimi S.V. Minina anomal vaziyatlar deganda, konfliktli ya'ni nizoli noqulaylik va muvaffaqiyatsiz kommunikatsiya vaziyatlarini nazarda tutib, savol-javob dialoglarini o'rganish jarayonida, situativ va kontekstual tahlil hamda komponent tahlil metodlaridan foydalanadi. Ratsional kommunikativ o'zini tutish qoidalarini, qonuniyatlari va boshqarish dasturlari masalasini muhokama qilgan olimi S.V. Minina [6] savol-javob diskursi bilan chegaralanib kommunikativ diskomfort tabiatini tushinishga va yechim izlashga harakat qiladi. Savol-javob diskursini tahlil qilar ekan ushbu olimi anomal vaziyatlarni shartli ravishda to'rtga bo'lib o'rganadi. Ayniqsa savolga savol bilan javob berish o'zaro tushunmovchilik keltirishi va kooperatsiya tamoyillarining barbad bo'lishiga olib kelishini ta'kidlaydi [6]. Bundan kelib chiqadiki, kommunikativ diskomfort ham kooperativ buzilishning bir turi sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shuningdek, tahlillar natijasida shu narsa ayon bo'ldiki zamonaviy adabiyotlarda "kooperativ konflikt" termini mavjud bo'lib, u kooperativ kontekstdagi nizoni anglatadi, ya'ni oila davrasida, yaqin do'stlar orasida ochiq va erkin tarzda kechadigan nizo turidir[4]. Ushbu holatda kelishmovchiliklar tinch va ochiq bahslarda o'z yechimini topadi deyish mumkin.

S.I. Moskalyovanning fikriga ko'ra kooperatsiya aktiga raxna yetkazishning ikki turi bor – qasddan va bilmasdan turib putur yetkazish kiradi. O'ngsiz ravishda kooperatsiyaga putur yetishi mumkin qachonki dialog paytida adresat yoki adresant tomonidan ko'p ma'noli leksemalar, metafora ma'nosiga ega so'zlar, omimlar, paronimlar, frazeologik birliklar va okkazonal transformatsiyaga uchraydigan leksemalar qo'llanilsa[7].

Kommunikatsiyada kooperativ ta'siri atay zarar yetkazish disgarmoniyaga olib keladi va uning maqsadi quyidagilardan iborat bo'ladi. 1. Konfliktidan kochish, 2. To'g'ridan to'g'ri javobdan qochish, 3. Nizoli hazil reaksiyasi maqsadlarida qo'llanilishi mumkin[7]. Aytish o'rinliki, kooperatsiyaning buzilishi nafaqat verbal balki noverbal vositalar yordamida ham yuzaga chiqadi.

Asosiy masalalardan biri kooperatsiyaning buzilishlarga qanday aniqlik kiritamiz va buzilishlar qanday ko'rinishlarga ega bo'ladi. N.A. Belousning fikriga ko'ra kooperatsiyaning buzilishi yolg'iz kechmaydi balki, manfaatdorlik (zainteresovannost) va ishonch kodeksi darz ketishi bilan birga kechadi [3]. Bizningcha, ushbu holatda determinirovannost xodisasi mavjud bo'ladi.

Olima V.S. Tretyakova o'z ilmiy asarida kooperatsiya va konfrontatsiya jarayonlarini tahlil qilar ekan, konfrontatsiya strategiyasini ko'rib chiqadi va unga tegishli ma'lum konfrontatsiya taktikalarini keltirib o'tadi, bularga tahdid, qo'rqitish, ta'na qilish, ayblash, masxara qilish, piching, haqorat qilish, ig'vo qilish va boshqalar kiradi. Shu bilan birga yolg'on gapirish, kesatish, shama qilish, tilyog'lamalilik qilish, tanbeh berish, iltimos qilish, mavzuni o'zgartirish va boshqalar [9] konfrontatsiya yoki kooperatsiya strategiyasini amalga oshirish uchun qo'llaniladigan taktikalarga kiradi va ularni u yoki bu maqsadda qo'llash kommunikantlarning tanloviga bog'liq bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki, kooperatsiya buzilishining bir necha omillari mavjuddir.

Kooperatsiya jarayonining buzilishi va kommunikativ muvaffaqiyatsizliklarga olib keluvchi bir necha markerlarni olimi V.S. Tretyakova guruhlariga bo'lib o'z ishida keltirib o'tgan[9]. Kooperatsiya buzilishiga sabab bo'luvchi omillar – nutqda polisemik yoki omonimik so'zlarning qo'llanilishi, atayin ma'lumotning yashirilishi uchraydi. Shuningdek, nizoli kommunikativ aktning ishorasi sifatida nutqda haqoratli, uyatli so'kish so'zlarni ishlatish, suhbatdoshni tasvirlayotganda (masalan, tashqi ko'rinish, shaxsiy fazilatlar) salbiy baholovchi leksikadan foydalanish, agnonim so'zlarni (keng omma uchun tushunarsiz yoki

mavhum qolgan birliklarni [1]) qo'llash, adresatga qaratilgan nutqda u shu yerda bo'lishiga qaramasdan uchinchi shahs birliklaridan foydalanish (unga yetkazinkki, men odamlarning noshukurligiga toqat qila olmayman, keskinlikni o'zida aks ettirgan fe'ning buyruq mayli shakllarini qo'llash (Joyingga o'tir! Darsdan so'ng oldimga kel!), do'q-po'pisa qilishni ajratish mumkin.

O'z o'rnida ingliz tilidagi matnlarda nizo tashabbuskorining kommunikativ hulq-atvorini gender aspektida o'rgangan olimi A.V. Belozero va ayollar va erkaklar nutqida nizoni ifodalash yo'llari turli xilligini ko'rsatib o'tgan, ya'ni nizoning erkak tashabbuskorlarining taktikalariga do'q-po'pisa qilish, o'z fikrini boshqalarga singdirish va kamsitish taktikalari kirs, ayol tashabbuskorlarning taktikalariga befarqlikni namoyon qilish, masxara qilish, o'pka-gina qilish va ayblashlar kiradi[2]. Demak, nizoni keltirib chiqarishda ayol va erkaklar bir-biridan farq qiladigan taktikalardan foydalanishadi.

Shuningdek, N.A. Belous ingliz va rus millatlariga xos bo'lgan konflikt diskursining illokutiv dominantlari ikki xalqning xam erkak jinsli vakillarini o'xshash, va o'z navbatida ayollarning konflikt nutqlari tezaursi o'zgacha ekanligini ta'kidlab, tip va podtiplarga ajratib o'tgan [3].

Olima D.S. Kulabuxovanning fikricha amaliyotda P. Grays maksimalaridan og'ish holatlari uchrab turadi va bir tomondan ushbu jarayon suxbatdoshning nosamimiyligini namoyish etishi bilan ifodalaniadi. Aytish joizki, olimi nosamimiylilik indikatorini quyidagilar orqali belgilanishini keltirib o'tgan: (a) ko'rinib turgan faktlarga qarshi chiqish, (protivorechiye faktov); (b) yolg'on xabarga samimiy xabar singari qarash fenomeni (fenomen privikaniya k lojnoy informatsii kak k istinnoy); (c) tafsilotlarni qalashtirib tashlash (nagromojdeniye podrobnostey) (masalan, men hamyonimni uyda, deraza oldidagi stol ustida qoldirdim); (d) nutq muhitini intimizatsiyasi (intimizatsiya recevoy sredi) (masalan, - Sizga qanchalik ishonishimni bilasizku) [5].

Boshqa bir olimi, S.V. Mininaning fikricha kommunikantning hayajondan yoki boshqa sabablar tufayli ma'lumotni yashirishga urinish, jim qolish, lingvistik vositalarni qaytarish ham uning samimiy emasligi tasavvurini berishi mumkinligini ta'kidlaydi [6]. Shuningdek, qayta savol berish ham adresatning samimiy emasligini yuzaga chiqarishi mumkin, chunki ushbu holatda koopersiya tamoyili bo'lgan ma'lumotning sifat maksimasi buziilishi anglashiladi. Nazarimizda, bu holat qanday vaziyatda yuz berayotganligiga bog'liq bo'ladi, shunday holatlar bo'ladiki suhbatdosh to'liq ma'lumot bergan bo'lsada, uning sherigi eshitmay yoki angalamay qolgan bo'lishi mumkin va ushbu vaziyatda ma'lumot berayotgan so'hatdosh to'liq ma'lumot bermasligida aybdor deya olmaymiz.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi fikrimizning davomi sifatida shuni qayd etish lozimki, o'z navbatida miqdor kategoriyasining buzilishi ko'pincha uslub kategoriyasi maksimasining buzilishi bilan bog'liq bo'ladi, ya'ni so'zlovchi xushmuomala, iltifotli, yordamga tayyor bo'lishga harakat qilganda, ushbu fazilatlarini haddan ortiq namoyon qilishi o'rsinsiz aniqlashtiruvchi savollar berish va shu bilan kommunikativ vaziyatni suhbatdoshga noqulay qilishida o'z aksini topadi.

Koopersiya buzilishining sabablariga nazar tashlaydigan bo'lsak, kommunikativ tamoyil va qoidalarining buzilishi kooperatsiya jarayonining ham darz ketishiga olib keladi[3]. Shu bilan avvaldan rituallashgan qoidalariga amal qilmaslik yoki amal qilishdan bo'yin tovlash/bo'ysunmaslik kooperatsiyaning buzilish sabablariga kiradi.

Olima N.A. Belousning fikricha, kooperatsiya buzilishining noverbal sabablaridan biri bu yetakchilikka, tashabbus ko'rsatishga va ishonchga bo'lgan da'volardir (pretenziyalar)[3]. Ko'rinib turganidek, shu kabi

kooperatsiyaning buzilish hodisasi opponentlar (muxoliflar) orasida sodir bo'ladi.

Muloqot muvaffaqiyatsizligini adresat va adresant orasida sodir bo'ladigan ijtimoiy hodisa deya ta'kidlab o'tgan olima S.I. Moskalyova muloqot muvaffaqiyatsizligining sabablari deb kommunikantlarda hayotiy va lisoniy tajribaning yetishmovchiligi, kommunikantlarning kichik yoshdali (voyaga yetmagan bolalar), chet elliklar bilan bo'lgan muloqotning o'zgachaligi va boshqa omillarni ajratib ko'rsatadi[7].

Shuningdek, olima S.V. Minina ham inson muloqotining qaysi bir xususiyatlari kommunikativ muvaffaqiyatsizlikka olib kelishini o'z ishida aniqlagan.

Bunga: (a) fikrni noaniq ifodalash; (b) xabar strukturasi murakkabligi; (c) nutqni turli yo'llar bilan qisqartirish; (d) ifodani noto'g'ri tuzish; (e) xabarni o'zini emas, balki yaqin olib ifodalash; (f) nutqning tushunilishi uchun muhim bo'lgan axborotni yopiq holda uzatishlar kiradi[6].

Xulosa va takliflar. Tadqiqotimiz davomida lingvisik kooperatsiyaning buzilish holatlarini ko'rib chiqib shunday xulosaga keldikki, ushbu jarayon "konfrontatsiya", "nutqiy nizo", "kommunikativ nizo akti", "kommunikativ muvaffaqiyatsizlik", "kommunikativ tushunmovchilik", "anomal kommunikativ vaziyat" singari atamalar bilan ifodalanadi.

ADABIYOTLAR

1. Andaniyazova G. (2022). Agnonimlarning personaj nutqidagi uslubiy o'rni (Sharof Boshbekov asarlari misolida). Conferencea, 178–183. URL: <https://www.conferencea.org/index.php/conferences/article/view/877> (Data obrasheniya: 20.01.2023).
2. Belozeroва A.V. Yazikovaya reprezentatsiya kommunikativnogo povedeniya initsiatora konflikta v angloyazichnom xudojestvennom tekste (genderniy aspekt) : Dis. ... kand. filol. nauk: 10.02.04 : Ivanovo, 2016 210 s.
3. Belous N.A. Konfliktniy diskurs v kommunikativnom prostranstve: Semanticheskiye i pragmaticheskiye aspekti. – Krasnodar, 2009. – 54 s.
4. Kosova I. O. Pragmaticheskiye kategorii kooperatsii i konflikta v rechevoy kommunikatsii // Vestnik VolGU. Seriya 2: Yazikoznaniye. 2006. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/pragmaticheskiye-kategorii-kooperatsii-i-konflikta-v-rechevoy-kommunikatsii> (data obrasheniya: 21.01.2023).
5. Kulabuxova D.S., Grineva M.S. Otstupleniye ot principa kooperatsii kak sposob sozdaniya podteksta v amerikanskom tok-shou. / Kulabuxova D.S., Grineva M.S. // Dnevnik nauki. – 2018. - № 7 (19)
6. Minina S.V. Anomalnie kommunikativnie situatsii, obuslovlennye narusheniyem principa kooperatsii (v sfere voprosno-otvetnogo diskursa). Diss. ... kand. fil. nauk. – Orel, 2006. – 28s.
7. Moskalyova S. I. Lingvisticheskiye sposobi sozdaniya komicheskogo v nekooperativnom rechevom obshenii (na materiale nemetskix yazikovix bitovix anekdotov). Diss. kand. fil. nauk. Ivanovo-2010. 21s.
8. Pevneva I.V. Kommunikativnie strategii i taktiki v konfliktnix situatsiyax obsheniya obixodno-bitovogo i professionalnogo pedagogicheskogo diskursov russkoy i amerikanskoy lingvokultur : avtoreferat dis. ... kand. filol. nauk. - Kemerovo, 2008. - 22 s.
9. Tretyakova V.S. Rechevoy konflikt i garmonizatsiya obsheniya : Dis. ... d-ra filol. nauk : 10.02.01 : Yekaterinburg, 2003 301 c. RGB OD, 71:04-10/72.